

EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Toshkent davlat agrar universiteti
"Huquqshunoslik" kafedrası assistenti
Asqarov Axbor G'ayratovich
asqarovaxbor4@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekologiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari mavzusi keng yoritib berilgan. Jamiki yashab turgan mavjudot ya'ni insonlarmi, hayvonlarmi, o'simlikmi o'z vazifasini bajarishi kerak. Mana shular bilan muvozanat saqlanib turadi. Ushbu maqolada yuqorida sanab o'tganlarim orasidan eng ongli va oliy tafakkur egasi bo'lmish insonlarning qanday qilib bu munosabatga kirishishining tahlili, O'zbekiston Respublikasining ekologiya sohasidagi qonunchiligini takomillashtirishning Konstitutsiyaviy maqomi, atrof muhitni muhofaza qilishda amaldagi qonunlarning realizatsiyasi atroflicha tahlil qilingan. Shunday masalalarning qonun bilan himoyalanganligi, ekologiya sohasini rivojlanishiga keng yo'l ochib beradi.

Kalit so'zlar: ekologiya, mintaq, "yashil iqtisodiyot", konstitutsiya, "orolbo'yi ekologik tizimi", qo'riqxon.

Ekologiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bugungi global va mintaqaviy muammolar fonida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining o'sishi, iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslardan foydalanish darajasining oshishi natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Bu esa agrar va ekologik qonunchilikni rivojlantirish orqali ushbu sohalarda samaradorlikka erishishni talab qiladi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida agrar sektorni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Masalan, "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini tatbiq etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va yer degradatsiyasining oldini olishga qaratilgan qonun va qarorlar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, agrar ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid huquqiy me'yorlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali agrar va ekologik qonunchilikni yaratishda davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish hamda zamonaviy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston bu borada xalqaro standartlarga mos keladigan qonunchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonda huquqiy hujjatlarning

amaliyotga tatbiqi va ularning real natijalarga xizmat qilishi ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Mazkur maqolada ekologiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb masalalari, ularni hal qilish yo‘llari va istiqbolli yo‘nalishlar batafsil tahlil qilinadi. Shu orqali qonunchilikning samaradorligini oshirish hamda barqaror rivojlanishga erishish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Inson tirik organizmlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etib yoki yashash sharoitini o‘zgartirib, uning tarqalishiga yoki qirilib yo‘q bo‘lishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Inson tabiatga ko‘rsatadigan kuchli ta‘siri orqali abiotik va biotik sharoitlarni o‘zgartiradi. Inson million yil davomida tarkib topgan tirik dunyo manzarasini bir necha o‘n yilda o‘zgartirib yubordi. Uning tirik organizmlariga salbiy ta‘siri natijasida Yer yuzida ko‘plab o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketdi. Hozirda dunyo aholisi 7.929,050.275 nafarni tashkil etmoqda. Bu korsatkich o‘shishda davom etadi. Aholi o‘sar ekan uning talab va ehtiyojlari oshib boradi. Ammo bugungi demografik o‘shish, resurslar va yer tanqis bo‘lgan davrda ekologik toza bo‘lgan yangi hududlarga ko‘chib o‘tish imkonsiz. Shuning uchun atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish bir qancha davlatlarning xususan O‘zbekiston Respublikasining asosiy normalarida belgilab qo‘yilgan. Masalan, Germaniya Konstitutsiyasining 20a-moddasiga ko‘ra “Davlat kelajak avlodlar oldidagi mas‘uliyatini ham yodda tutgan holda, tabiat va hayvonlarning tabiiy asoslarini qonun hujjatlari bilan, qonun va adolatga muvofiq, ijro etuvchi va sud organlari orqali konstitutsiyaviy tuzum doirasida himoya qiladi”. [1] Shuningdek, Avstriya, Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Litva, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya va Estoniya kabi davlatlarda fuqarolar va davlatning ekologiya sohasidagi huquq va majburiyatlari aniq-ravshan belgilab berilgan. Xususan, Gretsiya Konstitutsiyasi (1975 y.) 24-moddasida “Tabiiy va madaniy atrof muhitni muhofaza qilish davlatning majburiyati hisoblanadi”, deb belgilangan. Avstriyada esa, “Atrof muhitni har tomonlama muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Federal Konstitutsiyaviy qonun (1920 y.) amal qilishi ushbu mamlakatning atrof muhitni kompleks muhofaza qilishga intilayotganligidan dalolat beradi. GFR Konstitutsiyasi 20a-moddasida ham davlat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishi, bugungi avlod kelajak avlod oldida ma’sul ekanligi uqtirilgan. Italiyada ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha vazifa davlat zimmasiga yuklangan. Italiya Konstitutsiyasi 9-moddasida (1947 y.) ta’kidlanishicha, “Respublika mamlakat tabiatini muhofaza qiladi”. Hindistonda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilashga harakat qilishga majbur ekanligini hamda bu har bir Hindiston fuqarosidan talab qilinishini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 49-moddasida ham “Har kimga qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi berilganligi, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir

ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi” belgilab qo‘yilgan. muhofaza qilish davlatning majburiyati hisoblanadi”, deb belgilangan. Avstriyada esa, “Atrof muhitni har tomonlama muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Federal Konstitutsiyaviy qonun (1920 y.) amal qilishi ushbu mamlakatning atrof muhitni kompleks muhofaza qilishga intilayotganligidan dalolat beradi. GFR Konstitutsiyasi 20a-moddasida ham davlat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishi, bugungi avlod kelajak avlod oldida ma’sul ekanligi uqtirilgan. Italiyada ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha vazifa davlat zimmasiga yuklangan. Italiya Konstitutsiyasi 9-moddasida (1947 y.) ta’kidlanishicha, “Respublika mamlakat tabiatini muhofaza qiladi”. Hindistonda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilashga harakat qilishga majbur ekanligini hamda bu har bir Hindiston fuqarosidan talab qilinishini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 49-moddasida ham “Har kimga qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi berilganligi, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi” belgilab qo‘yilgan.

Ushbu moddaning ahamiyati birinchidan, fuqarolarning yashash uchun maqbul bo‘lgan tabiiy sharoitlarga ega bo‘lish, har bir fuqaroning atrof tabiiy muhit holati va unda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqidagi axborotni olish hamda tanishish imkoniga ega bo‘lishini hamda fuqarolarning muhim ekologik huquqlarni davlat organlari tomonidan amalga oshirish mexanizmlarini belgilashga xizmat qilsa. Ikkinchidan, ushbu konstitutsiyaviy normalar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qonunchilik tizimini shakillantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur konstitutsiyaviy normalar asosida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda aholi salomatligini

asrash bo'yicha 30 dan ziyod qonunlar va 200 yaqin qonun osti hujjatlari qabul qilingan.

Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarni javobgarligi ham belgilab qo'yilgan masalan O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq XI bo'limda ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. 47-modda. Tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik Tubandagi hollarda: – tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalar va boshqa normativtexnik talablarini buzishda, shu jumladan korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa ob'ektlarni rejalashtirish, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog'ida, ekologiya nuqtai nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imini, ekologiya normalari, qoidalarini buzishda; – tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaganlikda; atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganlikda aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi javobgarlikka tortiladilar. Mamlakatimizda tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik muamolarni bartaraf etish borasida sayi harakatlarga keladigan bo'lsak, qoniqarli darajada deya olamiz. Xususan ekoturiz sohasi. Zomin tog' landshafti, baxmal tumani ekologik muhiti, Guliston tumanidagi ekomaskan, shovot turistik qishlog'i, Samarqand sohilbo'yi dam olish maskanlari va so'nggi yillardagi sayi harakatlar, kata mehnat natijasida tashkil qilingan "Orolbo'yi ekologik tizimi" bunga yaqqol namuna bo'la oladi. Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan Atrof - muhitni muhofazasi, gigienik, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarida o'z aksini topgan. Har bir viloyat, har bir shahar, har bir qishloqning o'z ekotizimi tashkillashtirilgan, bu quvonarli hol. O'simlik dunyosi boy va rang barang, hayvonlarni muhofaza qilish uchun qo'riqxonalar tashkil qilingan. Qo'riqxonalarda har bir tabiiy mintaq, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, xarakterli manzara, relief shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim noyob turlar va hayvonlar saqlanib qolinadi.[4]

Xulosa:

Mazkur maqola mavzusi bo'yicha xulosa qilib aytishimiz mumkinki, asosiy qomusimizning beshinchi bo'limida davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy qoidalar belgilangan bo'lib, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va shu sohadagi davlat organlarining tashkil etilishida muhim huquqiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagilardan tashqari Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining vakolatlari ham belgilangan bo‘lib, ushbu normalar mazkur organlarning ekologiya sohasidagi vakolatlarining huquqiy maqomini belgilovchi milliy qonun hujjatlarining rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Umumiy konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, birinchidan, ularda ekologik munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan; ikkinchidan, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga bo‘lgan asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inagamova M.M. Sifatli ta’lim tizimini rivojlantirishning ba’zi strategik asoslari //O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti axborotnomasi. T.– 2023. № 3. 63-70 b.
2. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tabiatni muhofaza qilish va barqaror ekologik rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha normativ hujjat.
3. FAO (Food and Agriculture Organization) hisobotlari – Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik muvozanat bo‘yicha global statistik ma’lumotlar va tavsiyalar.
4. Sharipov N.M. “Ekologik qonunchilikning huquqiy asoslari” Ekologiya sohasidagi milliy qonunchilikni rivojlantirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot. Nashriyot: Toshkent davlat yuridik universiteti nashri, 2021-yil.
5. Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti bo‘lim boshlig‘i, yu.f.n., dotsent, Dj.Safarov
6. Muhammadjon Tursunov. Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi Academic research in modern science international scientific-online conference “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishda konstitutsiya normalarining roli” page 83